

*Alimova E'tibaroroy Azamjon qizi*

*Biologik fizika, informatika va tibbiy*

*texnologiyalar kafedrasи asistenti*

*Andijon davlat tibbiyot instituti*

**Annotatsiya** . Ushbu maqolada respublikamizda olib borilayotgan ta'lim jarayonlarida masofaviy ta'lim texnologiyalarini amaliyatga keng joriy etish va ta'lim sifati samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar shakllantirilgan, auditoriyadagi dars turlari va ularning tuzilishi. Dars jarayonida qo'llaniladigan o'quv materiallarining mazmunini bayon qilingan

**Kalit so'zlar.** blended learning, case study, Podcasting, Station Rotation, Vorbis, Blended Learning Universe .

*Alimova E'tibaroroy Azamjon qizi*

*department of biological physics,*

*informatics, medical technology*

*Andijan State Medical Institute*

**Abstract:** this article, proposals and recommendations on the wide introduction of distance learning technologies into practice and improving the effectiveness of the quality of education are formulated in the educational processes carried out in our republic, types of classes in the audience and their structure. The content of the educational materials used in the course of the lesson is described

**Keywords:** blended learning, case study, Podcasting, Station Rotation, Vorbis, Blended Learning Universe .

## **TA'LIM JARAYONLARIDA MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI AMALIYOTGA KENG JORIY ETISH.**

Zamonaviy ta'lismi va innovasiya texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribalarni, multimedia tizimlari va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga faol tatbiq etishni o'rganish natijasida modulli-kredit tizimi, "blended learning" aralash ta'lismi, case study, masofaviy o'qitish, mahorat darslari, vebinar, evristik metodlar va boshqa metodlar bilan tanishamiz. Pedagogik mahoratlar, turli-tuman metodlarning dars jarayonida qatnashayotgan talabalarning har xil sog'liqqa ega, har xil xonadondan, muhitdan va bilim darajasidan qat'iy nazar talabalarga teng etib borishini ta'minlash kerak. Buning uchun dars jarayoni darsga qo'yiladigan talablarga javob berishi shart.

Darsga bo'lgan talablar. Dars har xil tadqiqotlardan xulosa chiqargan holda o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas. O'quv amaliyoti va pedagogning doimiy izlanib yangi raqamlı texnologiyalardan foydalanishini takomillashtirishi ta'limga samaradorligi oshiradi. Bu sohada turli xil ko'rik-tanlovlari, respublika miqyosida o'tkazilayotgan pedagogik ishlarda o'rtaga qo'yilayotgan ilg'or o'qituvchilarining fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir.

Auditoriyadagi dars turlari va ularning tuzilishi. Dars jarayonida qo'llaniladigan o'quv materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talablarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg'ulot turi dars turlari deb yuritiladi.

***Masofaviy ta'lim jarayonida ko'p ishlataladigan dars turlari quyidagilardir:***

1. YAngi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O'qitilgan materiallarni mustahkamlash darsi.
3. Talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash darsi.

4. Aralash dars jarayoni (yuqoridagi dars turlarining bir nechtasini birga qo'llanishi).

Har bir dars turining ma'lum tuzilishi va xususiyatlari bor bu narsa o'qituvchining o'quv materialini to'g'ri va samarali tushuntirishiga mustahkam esda qoldirishga takrorlashga va uning o'zlashtirilishini nazorat qilib borishiga yordam beradi.

O'qitishning aralash shakli. "Blended learning" (aralash ta'lim) Talaba o'zining aniq sharoitlari va imkoniyatlariga eng ko'p mos keladigan o'quv jarayonini ongli ravishda tanlab olishi foydadan xoli emas. Tanlash darsning muhim tomonlarini e'tiborga olgan holda tavakkalchilik orqali bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayonini boshqarishga qandaydir tasodifiy yondashishga yo'l qo'ymaydi.

**Aralash va masofadan o'qitish.** Aralashtirilgan ta'lim "integrasiyalashgan o'qitish uslubini shakllantirish uchun kompyuter vositasida amalga oshiriladigan harakatlar bilan" yuzma-yuz uslublarni birlashtiradi (Pensilvaniya shtat universiteti, 2009). Har bir kursni noyob gibridd kursslari turli xil xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, kursda onlayn munozaralar, o'quv qo'llanmalari va tadqiqot ishlari hamda podcast yoki videoga talabalarning javoblari bo'lishi mumkin.

Podcasting - bu ovozli yoki videofayllarni (podcastlarni) internetda radio va televizion eshittirishlar tarzida yaratish va tarqatish jarayoni (Internetda tarqatish). Odatda, podcast ma'lum bir mavzu va nashr etish chastotasiga ega.

Podcast- bu alohida audio (MP3, AAC, Ogg / Vorbis (audio uchun); Flash Video va AVI (video podcast uchun) formatida yoki obuna bo'lish imkoniyati bilan bitta internet-resursda chop etilgan bunday fayllarning muntazam yangilanib turadigan seriyasidir.

"Blender learning" texnologiyasining modellarini amaliyotda qo'llanilishini ko'rib chiqamiz.

Station Rotation modeli talabalarga ta’lim muassasalari orqali belgilangan dars jadvali bo‘yicha aylanishiga imkon beradi. Ushbu model boshlang‘ich maktablarda eng keng tarqalgan, chunki o‘qituvchilar allaqachon «o‘z fanining markaziga» aylanishni yaxshi bilishadi.

Blended Learning Universe (BLU) katalogida ushbu modeldan foydalanayotgan 326 ta maktab va tumanlar ko‘rsatib o‘tilgan. Aralash o‘qitishning ushbu o‘ziga xos xususiyati odatda auditoriyada nazorat qilinadigan tartibni tashkil etish bilan hisobga olinadi va shu bilan talabalarga ularning o‘qish sur’ati va fanini nazorat qilish imkonini beradi. Station Rotation modeli o‘qituvchilarga darslarni an’anaviy sinfga qaraganda ancha yuqori darajada shaxsiylashtirishga imkon beradi.

### **Xulosa.**

1. Masofaviy ta’lim muhitida dars jarayonlarini tashkil etish individuallashtirishda masofaviy ta’lim muhitini, integrallashgan axborot-ta’lim resurslarini yaratishni ta’lim sifatini oshiruvchi omil sifatida tadqiq etishni taqozo etadi. Bunday muhitda talabalarni o‘qitish sifatini yanada oshirib borishga qaratilgan quyidagi ilmiy-metodik vazifalarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz: oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish metodlarini qo‘llashga erishish; oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan masofaviy ta’lim jarayonida foydalanish imkonini beruvchi elektron o‘quv-metodik ta’minotni hamda undan foydalanish metodikasini ishlab chiqish; masofaviy ta’lim yo‘nalishlari pedagoglari va talabalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi veb tizimni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Pedagogik tajriba-sinovlar shuni ko‘rsatdiki, masofaviy ta’lim muhitida dars jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida pedagogik loyihalashtirish , darsda turli-tuman inson ongiga tez etib boruvchi tasvir, video, grafika, sxema talabalarda murakkab o‘quv axborotini qabul qilish, tahlil qilish va esda saqlab

qolish qobiliyatini rivojlantirdi. Bunda ta'limning samaradorligi va talabalarda shakllangan bilim ko'nikma va malakalarining mustahkamligi oshdi. Masofaviy ta'lim muhitida raqamlı texnologiyalar asosida individuallashtirish metodlarini dars jarayonlariga pedagogik loyihalashtirishni didaktik jihatdan asoslangan holda joriy qilish talabalarining kasbiy tayyorgarligi bilimi, sifati va samaradorligini oshiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

- 1.M.I.Bazarboyev, I.Mullajonov, Biofizika.Toshkent.2018 yil. <https://e-library.namdu.uz>
- 2.Xitun V.A., Sklyarevich V.V., Gofman I.A., YUrev M.M. Praktikum po fizike. Moskva. 1972.
- 3.Nurmatov J., Isroilov M.I., Nishonov M., Avliyqulov A. Fizika. Laboratoriya ishlari. Toshkent. 2003.